

**XIVA NAQQOSHLIK SAN'ATI USTALARNING MEROSI VA HUNARLARINI
YOSHLARGA O'RGATISH ORQALI ULARNING MA'NAVIYATINI
SHAKLLANTIRISH**

Ibadullayev Sobirjon Egamberganovich

Urganch davlat universiteti San'atshunoslik kafedrasida o'qituvchisi; Uzbekistan.2.Urgench

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Xiva naqqoshlik san'ati ustalarining merosi va hunarlarini yoshlarga o'rgatish orqali ularning ma'naviyatini shakllantirish masalalariga e'tibor qaratilgan va Xiva naqqoshlik maktabining yorqin namoyondalari hayoti va ijodi yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Naqqoshlik, Komil Devoniy, Abdulla Boltayev, o'rachilik, mudarris Yusuf Hoji Doiy, naqsh chizish san'ati, ruta, turunj, munabbat, xalq ustalari.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются вопросы формирования духовности молодежи путем обучения наследию и ремеслам Хивинских мастеров росписи, освещается жизнь и творчество ярких представителей хивинской школы росписи.*

Ключевые слова: *Орнамент, Комил Девоний, Абдулла Болтаев, мударрис Юсуф Хаджи Дой, искусство рисования узоров, мунаббат, народные мастера.*

Annotation : *This article discusses the issues of forming the spirituality of youth through teaching the heritage and crafts of Khiva painting masters, and highlights the life and work of prominent representatives of the Khiva painting school.*

Keywords: *Ornament, Komil Devonii, Abdulla Boltaev, mudarris Yusuf Hadji Doi, art of drawing patterns, munabbat, folk craftsmen.*

Madaniyatimizni tasviriy san'atsiz tasavvur etib bo'lmaganidek, uning me'morlik, naqqoshlik, o'ymakorlik, ganchkorlik, xattotlik kabi nafis turlarisiz ham tasavvur etib bo'lmaydi. Xususan naqqoshlik san'ati ajdodlarimiz, bizga qoldirgan merosning bebaho va betakror bir bo'lagidir. U san'at odamlarining ma'naviy olamini boyitadi, didi va tuyg'ulariga sayqal beradi, ruhiyatini kamolga etkazadi. Shunday ekan, xalq dahosi yaratgan va yillar davomida shakllangan bu noyob merosni o'rganish, uni asrab-avaylash va bugungi va kelajak avlodni undan bahramand etish barchamizning burchimizdir.

Vatanimizning ko'xna naqqoshlik maktablarida saqlanib kelayotgan an'anaviy naqqoshlik san'ati albatta hozirgi kunda amaliy san'atni rivojlantirish pallasida muhim o'rin kasb etadi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, ko'xna naqqoshlik an'alarini saqlab qolish har qanday san'at yo'nalishida o'ta muhim hisoblanadi. Chunki, an'anaviy amaliy san'at bu tasviriy san'atdagi o'ziga xos mustahkam poydevordir.

Ma'lumki. O'rta Osiyo, shuningdek, Xiva naqqoshlik san'ati juda qadim zamonlardan mashhur. Ayniqsa, XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrda Xorazmda va san'at gurkirab o'sdi. Bu davrda naqqoshlik, ganchkorlik, o'rachilik, kulolchilik kabi hunarlarni yuksak pog'onaga ko'targan ajoyib xalq ustalari yetishib chiqdilar. Ro'zmat Masharipov, Komil Devoniy, Abdulla Boltayev, Ota Polvonov, Karimbergan Rahmonov Devon bobo, Sapo

Bog'bekov kabi ustalar ana shular jumlasidandir. Ustozlarning bizga qoldirib ketgan boy ma'naviy meroslarini qancha o'rganib izlanmaylik xuddi tubsiz dengizdek tugamaydi. Bizning hozirgi vazifamiz esa shu ustalarning merosi va hunarlarini yoshlarga o'rgatib, uni bus-butun keyingi avlodga etkazishdir.

Ana shunday Xiva naqqoshlik maktabining yorqin namoyondalaridan biri bu usta Abdulla Boltayevdir. Abdulla Boltayev 1890-yilning avgust oyida Xiva shahrining Ichonqalasida bo'yoqchilar oilasida tug'ilgan. Abdullaning o'tkir zehniligini sezgan otasi unga juda ko'p hunar va bilimlar o'rgatishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. 4 yil eski maktabda, 4 yil yangi usuldagi maktabda o'qigach, otasi o'z o'g'lini ajoyib hattot, naqqosh, katta shoir Abdurazzoq qori Abdujabbor o'g'li Faqiriyga shogirdlikka beradi.

Abdulla Boltayev taniqli naqqosh Eshmuhammad Xudayberdiyevdan ta'lim olgan va uning rahbarligida Xivadagi turli binolarni, Islomho'ja madrasasi va minorasini bezashda ishtirok etgan. 20 - yillarda Xorazmda o'ymakor – naqqosh sifatida tanilgan, Xiva memorlik yodgorliklarining badiiy bezaklarini tiklashda maslahatchi bo'lib ishlagan. Xiva naqqoshligiga xos shoxpoya (tanop, raftor), barg, gul va g'unchalarga o'xshash aylanma islamiy naqshlar Boltayev ijodida asosiy o'rinni egallaydi.

1935-36-yillarda Xivada "UMID" arteli koshida naqqoshlik, o'rachilik bo'yicha sex ochilib, o'sha yerda Abdulla Boltayev bilan Ota Polvonovlar birgalikda rahbarlarning topshiriqlariga muvofiq Xiva naqshlari asosida ustun yasagan edi. Usta Abdulla Boltayev Alisher Navoiy teatrini bezashda qatnashish bilan birga Toshkentdagi boshqa tarixiy imoratlarni qurish va bezash ishlarida ham o'zini ko'rsata oldi.

1947-48-yillarda Abdulla Boltayev Toshkentdagi Toshsovet teatri binosining naqqoshlik ishlariga rahbarlik qildi hamda bosh chizuvchi bo'lib ishladi. Abdulla Boltayev o'z tarixini sezuvchi va o'tkir targ'ibotchi edi. U O'zbekiston xalq rassomi, Davlat mukofoti laureati bo'ldi.

Xalq san'atini sevgan, uni ulug'lagan va o'z umrini naqshlarga abadiy muhrlangan Abdulla Boltayev 1966 yil 15 dekabrda 76 yoshda dunyodan ko'z yumdi. Hozirda Abdulla Boltayev tug'ilib o'sgan mahalla uning nomi bilan ataladi.

O'zbek xalqining nafis san'ati, ko'p qirrali jo'shqin va hazin adabiyotining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan, o'z ishi bilan xalq xizmatida bo'lgan yanv bir ijodkor adib Komil Devoniydir (1887-1938). Komil Devoniy XIX asrning oxiri va XX asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan, o'zbek adabiyoti va san'atida ma'lum darajada o'rni bo'lgan, uning rivojlanishiga kamtarona hissa qo'sha olgan shoir bo'libgina qolmasdan, mohir musiqachi va naqqoshlardan biri hisoblanadi. Komil Devoniy 1887 yilda Xivaning Sangar qishlog'ida hunarmand-muhrkan oilasida dunyoga kelgan. Uning otasi Ismoil Panayev muhrkan (muhr qo'yuvchi) naqqosh va musiqachi, adabiyotni jonu-dilidan sevgan inson bo'lgan. Komil Devoniy ana shunday san'atkor oilaning tarbiyasini olib voyaga etgan. U 13 yoshida otasidan etim bo'lib qoladi va ko'proq amakisi Xudoybergan Panayevning tarbiyasini oladi.

Komil Devoniy dastlabki ma'lumotni oilada, so'ngra Xivadagi Arabxon madrasasida oladi. Bu yerda unga o'z zamonasining talantli shoirlaridan o'tkir so'z ustasi hajvchi, mohir kalligraf, obro'li mudarris Yusuf Hoji Doiy ustozlik qilgan. U yosh Komildagi talantni sezgach, unga katta e'tibor bergan va serqirra san'atkor bo'lib etishishiga yaxshigina hissa

qo'shgan. Ana shunday muhit olamida tarbiyalangan Komil Devoniy ko'p o'tmay she'riyat va kalligrafiya (husnixat) sohasidagi san'ati bilan el-yurt orasida shuhrat qozonadi. Shuningdek, Xiva xoni Muhammadrahimxon taklifi bilan bir necha yillar saroyda devonlik vazifasida ham faoliyat ko'rsatgan. O'sha davrda yuksak martabaga ega bo'lgan ko'p qirrali iste'dod egasining nafaqat adabiyot va musiqa, balki xalq amaliy san'atining turli sohalarida ijod qilganligi ham ma'lum. Komil Devoniy, ayniqsa, XIX asr oxiri va XX asrning birinchi yarmida Xorazmda yuksak darajada rivojlangan naqsh chizish san'atini puxta bilgan naqqoshlardan biri sifatida el-yurtga tanilgan. U yaratgan har bir naqsh kompozitsiyasi o'z tuzilishi va katta mazmunga ega ekanligi bilan ham boshqa naqqoshlar ishlaridan ajralib turganligini ko'ramiz. Ham musiqachi, ham naqqosh bu inson o'z naqsh kompozitsiyalarida umum o'zbek milliy naqqoshlik san'ati an'alariga sodiq qolgan holda unga Xiva naqsh maktabi uslubining yangi qirralarini singdirishga erishgan. Naqqosh chizgan ruta, turunj va munabbat kabi naqsh namunalari ko'zdan kechirganimizda, Xiva naqqoshlik maktabiga xos bo'lgan yangicha talqindagi badiiy naqsh elementlaridan tarkib topgan yaxlit bir mazmunga ega bo'lgan naqsh kompozitsiyalari yaratilganligining guvohi bo'lamiz.

Komil Devoniy Xiva naqqoshlik maktabi hadisini olgan holda, Farg'ona, Qo'qon va Toshkent naqsh uslublarini mukammal o'rgangan. Uning ko'pchilik naqsh kompozitsiyalarida Farg'ona, Qo'qon va Toshkent naqsh maktablarida qo'llanilgan naqsh elementlari asos qilib olinganligini ham ko'ramiz.

Komil Devoniy 1937 yilning kuz oylarida bo'lmag'ur ayblar bilan qamoqqa olindi va 1938 yilning 10 fevralida uchlik (troyka) qarori bilan qatl qilindi. Benazir shoir va san'atkorning jo'shqin faoliyati ana shu tarzda fojeali to'xtatildi. Komil Devoniy adabiyot va musiqa sohasida juda boy meros qoldirdi. Uning ko'plab she'rlari xalq nazariga tushib hofiz va go'yandalar dasturida yashab kelmoqda. Talay qismi esa parokanda lavhalar sifatida mahalliy matbuotda nashr qilingan.

Go'zallik dunyosini yaratishda naqqosh ustalarining mehnati va zahmati beqiyos. Ularning bebaho san'ati tufayli oddiy chiziqlardan ko'rkam naqshlar yaratiladi. Albatta, bu yumushlar o'z-o'zidan bo'lmay, bunday go'zallik dunyosini yaratish uchun usta butun borlig'ini bag'ishlaydi, aql zakovati, bilimi va san'atini ishga soladi. Amaliy san'at ustalarining bizga qoldirgan merosini saqlash, asrab-avaylash, ularni qayta tiklash va uning kelajagini shakllantirish bo'yicha olib borilayotgan ilmiy-ijodiy ishlar chindan ham katta ahamiyatga ega. Me'morlik, naqqoshlik, o'ymakorlik, ganchkorlik, hattotlik kabi nafis turlarini o'rganish va xalq ustalarini hayoti va ijodiy faoliyati bilan mukammal tanishish talabalarning ijodiy qobiliyat va badiiy tasavvurlarini oshirish bilan birga ularning ma'naviy qiyofasini shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni. 17 noyabr 2017 yil.
2. Bulatov S. «O'zbek xalq amaliy bezak san'ati» 284-292 betlar Toshkent «Mehnat» nashriyoti 1991.

3. "Xiva ming gumbaz shaxri". Mualliflar jamoasi. Toshkent "Sharq" 1997 yil. 79-81 betlar.
4. Ibadullayeva N.E, Ibadullayev S.E, Xorazm kulolchilik va koshinpazlik san'atidagi an'anaviy texnologiyalarning o'ziga xos uslublari va estetik ta'sirchanligi. "ILM SARCHASHMALARI" ilmiy-nazariy, metodik jurnal. 2022 yil.7-son. 132-135.
5. Ibadullayeva N.E. The traditions preserved in the Khorezm blue pottery schools. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research. Volume: 7 Issue: 12. December 2021. 272-275. <https://doi.org/10.36713/epra2013>.
6. Qosimov Q. «Naqqoshlik» Toshkent «O'qituvchi» 1990 yil
7. Ibadullayeva Nigora Egamberganovna, Ro'zmetov Quvondiq Shonazarovich Xiva naqqoshlik san'ati uslubining o'ziga xos xususiyatlari. "Oriental Art and Culture" Scientific Methodical Journal. VOLUME 4 ISSUE 2. JUNE 2023.
8. Ibadullayeva Nigora Egamberganovna. Talabalarning badiiy va ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishda rangtasvirdan mustaqil badiiy va ijodiy faoliyatni tashkil etishning ahamiyati. Integratsiyalashgan ta'lim va tadqiqotlar jurnali. Journal of integrated education and research. JUNE 2023.